

Oybek YAKUBOV,
Chirchiq OTQMBYu katta o'qituvchisi

ERON FORS TILI VA ADABIYOTI AKADEMIYASIGA BIR NAZAR

*(Eron akademiyasi tomonidan qabul qilingan
sud tizimiga oid terminlar)*

Hozirgi zamon fors adabiy tiliga XX asrning boshidan boshlab, yangi soʻzlar, eski soʻzlarning yangi maʼno belgilari, yangi oʻzlashmalar va yasama soʻzlarning selday oqib kelishi kuzatilmoqda. Bu soʻzlarning barchasi “neologizm”(neo-yangi, logos-soʻz) termini bilan ifodalanadi.

Bu neologizmlarning paydo boʻlishiga asosiy sabab xalqning ijtimoiy-madaniy hayotidagi vujudga kelayotgan oʻzgarishlar va Eron mamlakatining dunyo hamjamiyatiga ildam odimlar bilan kirib borishi bilan bogʻliqdir.

XX asrning boshlariga kelib fors tili yangi voqelik bilan toʻqnash keldi. Bir tomondan Yevropada yuz berayotgan ilmiy-texnik inqilob va iqtisodning jadal surʼatlar bilan rivojlanishi, ikkinchi tomondan Eronning oʻzidagi milliy-ozodlik, ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish harakatlari fors tiliga koʻplab yangi tushuncha va oʻzlashmalarining oqib kelishiga sabab boʻldi.

Asrlar davomida sheʼriyat va badiiy adabiyot, tarixiy asarlar tili boʻlib kelgan adabiy tilning vazifalari kengaydi. Endi u badiiy adabiyot bilan bir qatorda dunyo siyosiy va iqtisodiy jarayonlarini yaratadigan publitistik uslub va jahondagi yangidan-yangi paydo boʻlayotgan ixtirolar va ilmfan yutuqlarini yoritadigan ilmiy-uslub vazifasini ham bajarishi kerak edi. Bunday vaziyatda, soʻzsiz, yuksak rivojlangan mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy va ilmiy terminlari hadsiz-hisobsiz tilga kirib kela boshlaydi. Bu hodisa ziyolilar orasida, tilning kelajagi uchun qaygʻuradigan vatanparvar

farzandlarida tabiiy norozilik kuchayishiga sabab boʻladi.

Bunday sharoitda davlat tildagi besaranjom holatni oldini olish va kechayotgan jarayonlarni tartibga solish uchun, oʻzining til siyosatini qabul qilishga majbur boʻladi. Shuning uchun boʻlsa kerak deyarlik bir davrda Turkiyada “Til qurumi”, Eronda “Farhangeston” va Misrda “Til akademiyasi” vujudga kelib, til sofligi uchun davlat siyosati sathida harakat boshlandi. Bu jarayon rus tilshunoslari tomonidan “purizm” tamoyili, deb boholanadi.

“Purizm (fr. Purism, lotincha purus-toza) dan olingan boʻlib – adabiy tilni chet tilidan oʻzlashmalar, har xil yangi yasalgan soʻzlar, adabiy tildan tashqari nutq unsurlaridan (dialektizmlar, sodda soʻzlashuv tili va b.)dan tozalashga intilishdir. Rus tilidagi “Lingvistik ensiklopedik lugʻat”da “purizm” shunday izohlanadi: “Ilmiy til meʼyorlarini ishlab chiqish ikkita qarama-qarshi jihatlar: purizm va antinormalizatorlik kurashi ostida oʻtadi.”

Purizmning ijobiy jihatlari oʻziga xos milliy madaniyatni oʻstirish gʻami, ona tilining boyligiga, uning leksik-semantik va soʻz yasash zaxiralariga eʼtibor qaratish bilan bogʻliq. Purizmning salbiy jihati uning tarafdorlarining subʼyektivligi, tarixiy taraqqiyotini inkor qilishi, tilning tadrijiy taraqqiyotini tushunmasligidir¹.

¹ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Сов. энциклопедия, 1990. стр. 58

Hozirgacha adabiyotlarda purizm hodisasi faqat salbiy jarayon – millatchilik ruhi bilan bog‘liq bir harakat deb qaralardi. Aslida “purizm” har bir millatning til sofligi va milliy o‘ziga xos madaniyatni saqlash uchun intilishdir. Lekin har bir narsada bo‘lganiday bu jarayon ravon, ilmiy asoslangan dastur asosida kechmaydi. Albatta noilmiy, sub’yektiv unsurlar aralashadi. Purizm bayrog‘i ostida tilda asrlar davomida mustahkam joy egallagan so‘z va iboralarni, faqat chet tilidan o‘zlashgani uchun chiqarib tashlash kerak degan urinishlar bo‘ladi. Bu harakat tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatiga zid harakat hisoblanadi².

Eronda shu kunga qadar “Farhangeston” tomonidan ko‘pgina chet tilidan o‘zlashgan neologizmlar forsiy kelib chiqishga ega bo‘lgan muqobil variantlari bilan almashtirilib kelinmoqda va bu o‘z samarasini bermoqda, deb aytish mumkin. Albatta Til Akademiyasi tomonidan ilgari surilayotgan variantlarning hammasi ham tezda hayotga joriy bo‘layotgani yo‘q, ba’zilari xalq tarafidan yaxshi qabul qilinmay uning boshqa variantlari bilan almashtirilishiga sabab bo‘lmoqda. Biroq umumiy qaraladigan bo‘lsa, Akademiya tomonidan kiritilgan yangi so‘zlarning 6070 foiz xalq tiliga o‘zlashib ulgiran.

Fors tili va adabiyoti Akademiyasi, ta’sis topishi bilanoq begona so‘zlarning shiddat bilan kirib kelishiga qarshi kurashishni boshlagan va bu so‘zlarning muodilini keltirish orqali fors tili lug‘at birligining sofligini qaysidir ma’noda saqlab kelmoqda.

Oxirgi bir necha o‘n yilliklarda fors tiliga turli yo‘llar orqali so‘zlar kirib keldi va buning asosiy qismi ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ular ikki toifaga bo‘linadi. Birinchi toifa xalq ichida ommalashib keng qo‘llaniladi. Ikkinchi toifa so‘zlar esa ixtisoslashgan so‘zlar bo‘lib ilm-fan sohalarida qo‘llaniladi.

Akademiya kengashi dastavval birinchi toifaga kiruvchi so‘zlar muodilini yaratishga kirishgan. Buning uchun Akademiya matbuot, hamda davlat tuzilmalarida qo‘llaniladigan barcha o‘zlashma so‘zlarni aniqladi. Ilk tadqiqot natijasi o‘zlashma so‘zlar miqdori tasavvur qilinganchalik (ko‘p)

emasligini ko‘rsatdi. Ma’lum bo‘lishicha ushbu so‘zlar 4000 dan ortmaydi va uning to‘rtidan uch qismi esa kam qo‘llaniladigan so‘zlar ekanligi aniqlangan va qolganlari ham umri uzoq bo‘lmagan so‘zlarni tashkil qilgan. Shu tariqa keng qo‘llanuvda bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar miqdori mingtaga ham yetmasligi ayon bo‘ldi.

Keng qo‘llanish doirasiga ega bo‘lgan so‘zlar quyidagi sohalarga oid ekanligi aniqlandi:

1) Ta’lim va tadqiqot;	11) Siyosatshunoslik;
2) Aloqa, pochta va tele-kommunikatsiya;	12) Kutubxonachilik;
3) Ma’muriy ishlar;	13) Uy anjomlari va bezaklari;
4) Iqtisodiy masalalar;	14) Turli boshqa sohalar;
5) Elektr va elektronika;	15) Arxitektura va shahar qurilishi;
6) Tibbiyot;	16) Sport;
7) Nashr;	17) San’at va adabiyot.
8) Qadoqlash sanoati;	
9) Oziq-ovqat sanoati;	
10) Asosiy fanlar va muhandislik sohasi;	

Akademiya muqobil variant topishni bir necha bosqichlarda amalga oshiradi. Avvaliga har bir sohaga tegishli bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar aniqlanadi va har bir so‘z uchun passport yaratilib alohida tadqiq qilinadi, uning fors tilidagi anglatgan ma’nosi, boshqa tildagi asosiy ma’nosi, ta’rifi, grammatik xususiyatlari, yozuvchilar va lug‘atnavislar tarafidan qo‘llanilgan sinonimlari o‘rganiladi, keyin esa Akademiya tadqiqot guruhining baxs-munozaralari, fikr-mulohazalari umumlashtirilib eng ma’qul bo‘lgan muodil variant taklif qilinadi va “Akademiya nomasi”da nashr qilinadi. Shundan so‘ng, Akademiya kengashi tomonidan tasdiqlanadi yoki boshqa muodiliga almashtiriladi. Akademiya rahbari tasdig‘idan o‘tgandan so‘ng, ushbu so‘zlar rasmiy jihatdan qo‘llanuvga kiritiladi. Shu kunga qadar 222 ta so‘zlar Akademiya tarafidan kiritilgan bo‘lib, hozirda yana bir qancha so‘zlar ustida tadqiqotlar olib borilyapti. Quyida ba’zi tasdiqlangan o‘zlashma so‘zlarning muodillarini keltiramiz³:

² Куранбеков А. Проблемы формирования научно – технической терминологии в современном персидском языке. Журнал (Вопросы филологии), 2003. №2

³ Qarang: <http://persianacademy.ir/UserFiles/File/NF/10/NF-10-11.pdf>

<i>soha</i>	<i>Tas- diqlan- gan muodili</i>	<i>Asl shakli</i>	<i>Fors tilidagi shakli</i>	<i>No</i>
13	نورتاب	abat - jour (fr)	آبازور	1
2	مشترك	abonné (fr)	آبونه	2
15	كاشانه	appartement (fr)	آپارتمان	3
14	روزآمد	up to date (en)	آپ تودیت	4
17	كارگاه	atelier (fr)	آتلیه	5
3	بايگاني	archives (fr)	آرشیو	6
14	نشانه	arm (en), arme (fr)	آرم	7

Fors tili terminologiyasi qatlamida fors tilidagi sud tizimiga oid terminlarning ahamiyatini ham tarixiy davrlardan ko‘rishimiz mumkin. Biz quyida bazi fors tiliga o‘zlashgan terminlarni ko‘rib chiqdik.

1935-yil 19-aprelda Eron shohi Rizoshoh “Eron akademiyasi”ni tuzish to‘g‘risida buyruq bergach, Eronda purizm g‘oyasi ilgari surilib, 800dan ortiq yangi terminlar qabul qilingan. Shulardan 75tasi yuridik sohaga oid terminlardir⁴.

Quyida ularning ba'zilariga misollar keltiramiz:

agreman	āgremān	آگرمان
	<i>pazireš</i>	پذیرش

دولت فرستنده باید اطمینان حاصل نماید که دولت پذیرنده برای شخصی که به عنوان رئیس مأموریت معرفی می شود **آگرمان** صادر می کند.

Adresant davlat akseptant davlat ma'muriyat raiisi deb tanishtirilgan shaxsga agreman berilishiga ishonch hosil qilishi zarur.

kafil	<i>zāmen</i>	ضامن
	<i>pāyandān</i>	پایندان

یعنی خواننده به عنوان ضامن و موکلین خواهان به عنوان مضمون و یا مدیون اصلی می باشد با توجه به

مواد ۳۸۱ و ۰۹۱ قانون مدني و ماده ۱۰۳۱ همان قانون...^۶.

*Ya'ni ular **kafil** va vakillikni bo'yniga olgan shaxs hisoblanib, fuqarolik kodeksining 183 va 190 moddalari va shu kodeksning 1301 muddasiga binoan debitor bo'ladilar.*

در این نامه همچنین علام آمادگی گروه کثیری از کارمندان دادگاه برای قبول کفالت آقاجری و امضای برگ پایندان وی خبر داده شده است.^۷

*Mazkur maktubda Og‘ojeriyning kafolatini qabul qilish va uning **kafillik** varaqasini imzolash uchun sud xodimlaridan iborat katta guruh tuzilganligi haqida xabar berilgan.*

Alternativa, vechim (usul)	<i>ālternātif</i>	آلترناتيف
	<i>šey(γ)</i>	شق

بدون در نظر داشت جایگاه قانونی لویه که بحث های فراوانی نیز پیرامون آن صورت گرفته است، سعی می بر این است تا مقاصد حکومتی ها در این بازی روشن شود و **الترناتیف** نهاد های قانونی پیدا شود^۸.

*Loyaning qonuniy statusini inobatga olmasak ham, uning atrofida ko‘plab bahs munozaralar avjiga chiqqan bo‘lib, uning say-harakatlari hukumatchilarning maqsadlari ushbu “o‘yin” da o‘z yechimini topishi va qonuniy harakterga ega **alternativ yechim** topishga qaratilgan.*

موضوع مقاله ما نیز شق دوم تصمیمات دادگاه است چرا اینکه در شق اول قاضی محترم دادگاه در جهت صدور رای درست اقدام به اخذ تصمیمات مختلفی می نماید که هیچ گونه ایرادی بر آن نیست.^۹

Maqolamiz mavzusi ham sud qarorining ikkinchi alternativ yechimidir, negaki, birinchi yechimda muhtaram sudya tog‘ri fikr bildirishda

⁴ Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва.: 2008. 10 стр.

⁵ <http://www.yaserziaee.blogfa.com/post-193.aspx>

⁶ <http://www.vekalatonline.ir/laws/16314/> - استدلالات دادگاه - به - فقدان شرط ابط اساسی - ضمان - خوانده - و جاهت - ندارد

⁷ <http://kadivar.com/?p=3293>

⁸ <http://www.etilaatroz.com/> موافقت نامه ی امنیتی در گرو

⁹ <http://vokalaye-azad-andish.com/?p=133>

unga qarshi turmaydigan turli xildagi qarorlarni qabul qilishga harakat qiladi.

veksel	veksel	وکسل
	barāt	برات

برات نوشته ای است که بر اساس آن شخصی به شخص دیگری امر می کند مبلغی در وجه یا حواله کند شخص ثالثی در موعد معینی بپردازد.¹⁰

Veksel – hujjat turi bo‘lib, unga ko‘ra, biror shaxs boshqa bir shaxsga naqd pul yoki pul o‘tkazishni buyuradi va uchinchi tomon bu pulni muayyan muddatda to‘lab beradi.

Xatti-harakat, akt	ākt	آکت
	eydām	اقدام

دادگاه آمریکا: آکت آژانس امنیت ملی آمریکا غیرقانونی است.¹¹

Amerika sudi: Amerika milliy xavfsizlik agentligi qilgan xatti harakati qonunga xilofdir.

سخنگوی وزارت امور خارجه رأی دادگاهی را در کانادا علیه منافع و اموال ایران، اقدام سیاسی و تحت تأثیر رفتار دولت کانادا دانست و از اقدامات متقابل ایران در این باره خبر داد.¹²

Tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili Eron manfaati va mol-mulkiga qarshi chiqarilgan Kanada sudi qarorini siyosiy akt va Kanada davlati bosimi ostida chiqarilgan, deb baholadi va bu borada Eronning xatti-harakatlari haqida xabar berdi.

obstruksiya (ish faoliyatining buzilishi)	ābstruksiyun	آبستروکسیون
	exlāl	اخلال
	kāršekani	کارشکنی

آنشب دوشنبه کذائی که آبستروکسیون شد و مجلس از اکثریت افتاد، بدون اینکه آن تصویب نامه ها و تبصره ها خوانده بشود یکدفعه گذراندند.¹³

Voqealarga boy bo‘lgan va obstruksiya (ishning buzilishi) amalga oshgan dushanba kechasida majlisda ko‘pchilik ishtirok eta olmadi, kelishuvlar va ularga berilgan izohlarni o‘qib o‘tirmay, barcha bir ovozdan qabul qildi.

هیچ کس حق ندارد در مقابل دادگاه بایستد و در صورتی که کسی نسبت به این دادگاه کارشکنی نمود، معرفی نماید.¹⁴

Hech bir shaxs sud ishiga to‘sqinlik qilish huquqiga ega emas va shunday holat kuzatilib, kimdir sud ishida obstruksiyaga yo‘l qo‘ysa, unga uqtirib qo‘yinglar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, fors tili tarkibida o‘zlashmalar sonining ko‘pligiga qaramay, bu til o‘zining lug‘aviy boyligini yo‘qotmagan. Uning tarkibidagi o‘zlashmalar ko‘zga yaqqol tashlanmaydi, ya‘ni, o‘zlashmalar umumiy til tarkibidan ajralib qolmagan, ba‘zi so‘zlar tilda muqim o‘rnashadi, ba‘zilari esa ma‘lum vaqt ichida iste‘moldan chiqib ketadi.

Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sud tizimiga oid o‘zlashma terminlar ham salmoqli qismni tashkil qiladi, shuningdek, foiz ko‘rsatkichlari ularning qay darajada rivojlanganligi va sarmahsulligini baholashga imkon beradi. Tadqiqot davomida quyidagi foiz ko‘rsatkichlari aniqlandi.

- Arab tilidan o‘zlashgan terminlar – 74 foiz
- Ingliz tilidan o‘zlashgan terminlar – 16 foiz
- Fransuz tilidan o‘zlashgan terminlar – 10 foiz

Mazkur ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, fors tilidagi sud tizimiga oid o‘zlashma terminlar ichida arab tiliga mansublari eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Tarixan Eron arablar tomonidan fath etilgan, fors tili tarkibida ko‘plab arabiy terminlar muqim o‘rnashib qolgan. Shuningdek, Eron islomiy davlat bo‘lganligi va undagi sud ishlari shariyat qonunlariga asoslanganligi sabab, arabiy o‘zlashmalardan foydalanmaslikni ilojisi yo‘q.

¹⁰ <http://fa.wikipedia.org/wiki/برات>

¹¹ <http://persian.euronews.com/2013/12/17/judge-questions-legality-of-nsa-surveillance-programme/>

¹² <http://www.dolat.ir/NSite/FullStory/News/?Serv=0&Id=221757>

¹³ http://fa.wikisource.org/wiki/مذاکرات_مجلس_شورای_ملی_۱۴_خرداد_۱۳۲۹_نشست_۳۱

¹⁴ <http://library.tebyan.net/newindex.aspx?pid=102834&ParentID=0&BookID=5659&MetaDataID=9941&Volume=17&PageIndex=141&PersonalID=0&NavigateMode=CommonLibrary&Content>